XALQ DEPUTATLARI NURAFSHON SHAHRI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 10-noyabr VII-11-96-10-213-K/25 Nurafshon shahri

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq Nurafshon shahridagi mavjud geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash bo‘yicha takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 27-avgustdagi yig‘ilish bayoni va ekspert xulosasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Nurafshon shahri Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisining o‘rinbosari M. Shoismanovaning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash bo‘yicha takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 27-avgustdagi yig‘ilish bayoni va ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan shahardagi 24 ta ko‘cha nomi ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Nurafshon shahri Davlat soliq inspeksiyasi, shahar statistika bo‘limi, Davlat xizmatlari markazi, iqtisodiyot va moliya bo‘limi, shahar ichki ishlar bo‘limi, Davlat kadastrlari palatasi shahar filiali, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi shahar bo‘limi hamda boshqa tegishli mutasaddi tashkilotlarga quyidagilar topshirilsin:

mazkur qaror bilan nomlari tasdiqlangan 24 ta ko‘chani belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ish yuritish hujjatlariga zarur o‘zgartish va qo‘shimchalarni kiritish, shuningdek, boshqa tegishli tashkiliy-amaliy choralarni ko‘rish;

shahar migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limi tomonidan fuqarolarni ro‘yxatga olish va ro‘yxatdan chiqarish jarayonlarida yangilangan ko‘cha nomlarining to‘g‘ri aks ettirilishiga alohida e’tibor qaratilishi ta’minlansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Nurafshon shahri filiali (I. Ibrohimov) va shahar Davlat xizmatlari markazi (D. Axmedova):

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-sonli hamda 2018-yil 14-dekabrdagi 1010-sonli qarorlarida belgilangan tartibga muvofiq, geografik obyektlar nomlarini tartibga solish yuzasidan ko‘chalar nomlarining o‘zgartirilishi munosabati bilan aholiga davlat boji undirilmasligini ta’minlash choralari ko‘rilsin.

5. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (A. Eshbayev), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Nurafshon shahri bo‘limi (Z. Maxsudova) hamda Obodonlashtirish boshqarmasi (S. Azizixodjayev)ga bir oy muddatda:

qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosidagi ko‘chalarga ularning yangi nomlari yozilgan metall ko‘rsatkichlar, belgilar va peshlavhalarni bosqichma-bosqich o‘rnatish va almashtirish;

amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha ma’lumotlarni belgilangan muddatda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisining o‘rinbosari M. Shoismanovaga taqdim etish vazifasi topshirilsin.

6. Shahar ichki ishlar bo‘limi (A. Yuldashev)ga:

fuqarolarning xorijga chiqish va kirish uchun hujjatlarini rasmiylashtirishda ko‘chalarning qayta nomlanganligiga alohida e’tibor qaratish;

rasmiylashtiriladigan hujjatlarda geografik obyektlarning nomlari to‘g‘ri aks ettirilishini doimiy nazoratga olish topshirilsin.

7. Mazkur qaror “Mash’al” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda Nurafshon shahri hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisining o‘rinbosari M. Shoismanova tomonidan geografik obyektlarga berilgan nomlar bo‘yicha tegishli hujjatlar o‘n kun muddatda Geografik obyektlar nomlarining davlat reyestriga kiritish uchun Kadastr agentligiga taqdim etilsin.

9. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Nurafshon shahar Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi G‘. Isroilov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi  KLICHXANOV ILXOM MAXMUDJONOVICH

Xalq deputatlari Nurafshon shahri Kengashining
2025-yil 10-noyabrdagi
VII-11-96-10-213-K/25 -son qaroriga
1-ilova

“Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha” komissiyasining davlat ekspertizasidan o‘tkazilgan obyekt nomlari to‘g‘risida
MA’LUMOT

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashuvi (X,Y)		Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaga ekspert komissiyasining izohi	Ekspert komissiyasining xulosasi
		Boshlang‘ich	Oxirgi					
1.	Koʻcha	69° 21' 36,857" E 41° 2' 51,682" N	69° 21' 33,986" E 41° 3' 2,149" N	Muqimiy mahallasi	Bahor	Bahor	Xaritada geografik obyektning turi toʻg‘ri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Tor koʻcha	69° 21' 27,755" E 41° 2' 56,237" N	69° 21' 36,921" E 41° 2' 56,299" N	Muqimiy mahallasi	Nomsiz koʻcha	Bahor	Xaritada geografik obyektning turi toʻg‘ri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Berk koʻcha	69° 21' 39,076" E 41° 0' 48,817" N	69° 21' 40,501" E 41° 0' 44,178" N	Nurafshon mahallasi	Nomsiz koʻcha	Mumtoz	Xaritada geografik obyektning turi toʻg‘ri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Koʻcha	69° 21' 30,917" E 41° 0' 41,623" N	69° 21' 43,895" E 41° 0' 46,806" N	Nurafshon mahallasi	Nomsiz koʻcha	Mumtoz	Xaritada geografik obyektning turi toʻg‘ri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5.	Berk	69° 22' 20,569" E	69° 22' 19,206" E	Oppoq	Nomsiz	Kelajak	Xaritada geografik	Qonun hujjatlari

	koʻcha	40° 59' 29,222" N	40° 59' 22,268" N	mahallasi	koʻcha		obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	talablariga muvofiq.
6.	Koʻcha	69° 22' 3,230" E 40° 59' 27,461" N	69° 22' 42,559" E 40° 59' 31,153" N	Oppoq mahallasi	Nomsiz koʻcha	Kelajak	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7.	Tor koʻcha	69° 20' 57,489" E 41° 3' 41,192" N	69° 20' 53,814" E 41° 3' 36,053" N	Qumariq mahallasi	Nomsiz koʻcha	Vatan	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8.	Koʻcha	69° 21' 1,723" E 41° 3' 37,661" N	69° 21' 7,174" E 41° 3' 57,412" N	Qumariq mahallasi	Nomsiz koʻcha	Vatan	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9.	Koʻcha	69° 22' 11,237" E 40° 59' 28,302" N	69° 21' 57,783" E 40° 59' 48,565" N	Oppoq, Chigʻiriq mahallalari	Nomsiz koʻcha	Sayqal	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10.	Koʻcha	69° 22' 15,333" E 41° 1' 11,191" N	69° 21' 44,290" E 41° 1' 22,282" N	Obod mahallasi	Nomsiz koʻcha	Nastarin	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11.	Koʻcha	69° 19' 19,243" E 41° 2' 5,586" N	69° 19' 34,297" E 41° 2' 6,221" N	Degantepa mahallasi	Nomsiz koʻcha	Hidoyat	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12.	Berk koʻcha	69° 19' 30,183" E 41° 2' 5,982" N	69° 19' 29,126" E 41° 1' 59,652" N	Degantepa mahallasi	Nomsiz koʻcha	Hidoyat-1	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
13.	Berk koʻcha	69° 19' 26,183" E 41° 2' 5,746" N	69° 19' 25,040" E 41° 1' 59,138" N	Degantepa mahallasi	Nomsiz koʻcha	Hidoyat-2	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

14.	Berk ko‘cha	69° 19' 22,223" E 41° 2' 5,700" N	69° 19' 21,221" E 41° 1' 59,547" N	Degantepa mahallasi	Nomsiz ko‘cha	Hidoyat-3	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
15.	Tor ko‘cha	69° 21' 25,033" E 41° 2' 38,492" N	69° 21' 30,191" E 41° 2' 40,907" N	Muqimiy mahallasi	O. Fayziyev	Saxovat-1	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
16.	Tor ko‘cha	69° 21' 29,678" E 41° 2' 41,802" N	69° 21' 39,869" E 41° 2' 44,632" N	Muqimiy mahallasi	O. Fayziyev	Saxovat-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
17.	Tor ko‘cha	69° 21' 22,440" E 41° 2' 46,054" N	69° 21' 26,610" E 41° 2' 47,574" N	Muqimiy mahallasi	O. Fayziyev	Saxovat-3	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
18.	Tor ko‘cha	69° 21' 28,773" E 41° 2' 53,415" N	69° 21' 37,830" E 41° 2' 55,142" N	Muqimiy mahallasi	O. Fayziyev	Saxovat-4	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
19.	Tor ko‘cha	69° 21' 38,370" E 41° 2' 42,437" N	69° 21' 33,953" E 41° 2' 53,369" N	Muqimiy mahallasi	O. Fayziyev	Saxovat-5	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
20.	Ko‘cha	69° 21' 33,726" E 41° 2' 34,119" N	69° 21' 36,868" E 41° 2' 37,318" N	Muqimiy mahallasi	O. Fayziyev	Saxovat	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
21.	Ko‘cha	69° 21' 3,932" E 41° 3' 25,390" N	69° 21' 10,878" E 41° 3' 37,644" N	Navro‘z mahallasi	Nomsiz ko‘cha	Sadaf	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
22.	Tor ko‘cha	69° 21' 8,074" E 41° 3' 29,590" N	69° 21' 13,674" E 41° 3' 35,825" N	Navro‘z mahallasi	Nomsiz ko‘cha	Sadaf	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri	Qonun hujjatlari talablariga

							koʻrsatilgan.	muvofiq.
23.	Koʻcha	69° 20' 58,415" E 41° 2' 25,399" N	69° 21' 0,119" E 41° 2' 34,571" N	Zahiriddin Muhammad Bobur mahallasi	Nomsiz koʻcha	Ijodkor	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
24.	Tor koʻcha	69° 20' 57,118" E 41° 2' 30,743" N	69° 20' 55,447" E 41° 2' 31,729" N	Zahiriddin Muhammad Bobur mahallasi	Nomsiz koʻcha	Ijodkor	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.